

## XIVA JADIDCHILIGI

*Izzatillaxon Maxmutaliyevich Xaydarov – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrasida professori, tarix fanlari doktori (DSc).*

*Sattorova Ruxshona – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, “Sharq mamlakatlari tarixi” yo‘nalishi 2-kurs talabasi.  
E-mail: izzatillakhon@gmail.com,  
sattorovaruxshona93@gmail.com*

**Annotatsiya.** *Xiva jadidchiligi – XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xiva xonligida yuzaga kelgan ma’rifatparvarlik va islohotchilik harakati bo‘lib, uning asosiy maqsadi jamiyatni zamonaviylashtirish, ta’lim tizimini yangilash va xalq ongini yuksaltirishdan iborat edi. Jadidlar eski usuldagi maktablarni isloh qilish, yangi usul maktablarini joriy etish, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdilar. Xiva jadidchiligi mahalliy sharoitga mos holda shakllanib, siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlarga ham turtki berdi. Ushbu harakat vakillari milliy uyg‘onish, ozodlik va taraqqiyot g‘oyalarini ilgari surib, xalq orasida keng targ‘ibot olib bordilar.*

**Kalit so‘zlar:** *Xiva xonligi, jadid maktablari, usuli saftiya, usuli qadim, rus-tuzem maktablari, Muhammad Rahimxon, Asfandiyorxon, Sayid Islomxo‘ja, Polvonniyozhoji Yusupov, Rossiya imperiyasi, Bobooxun Salimov*

**Annotation.** *Khiva Jadidism was an enlightenment and reform movement that emerged in the Khiva Khanate in the late 19th and early 20th centuries. Its main goal was to modernize society, reform the education system, and raise public awareness. The Jadids paid special attention to reforming traditional schools, introducing new-method schools, and promoting the development of science and culture. Khiva Jadidism developed in accordance with local conditions and also contributed to political and social changes. Representatives of this movement advanced ideas of national awakening, freedom, and progress, and actively promoted them among the population.*

**Keywords:** *Khiva Khanate, Jadid schools, usuli savtiya (phonetic method), usuli qadim (traditional method), Russian-native schools, Muhammad Rahimkhan, Asfandiyarkhan, Sayid Islamkhoja, Polvonniyozhoji Yusupov, Russian Empire, Bobooxun Salimov.*

**Аннотация.** *Хивинское джадидство — это просветительское и реформаторское движение, возникшее в Хивинском ханстве в конце XIX — начале XX века. Его основной целью было модернизировать общество,*

реформировать систему образования и повысить уровень общественного сознания. Джадиды уделяли особое внимание реформированию традиционных школ, внедрению новометодных школ, а также развитию науки и культуры. Хивинское джадидство формировалось с учетом местных условий и способствовало социально-политическим изменениям. Представители этого движения продвигали идеи национального пробуждения, свободы и прогресса, активно распространяя их среди населения.

**Ключевые слова:** Хивинское ханство, джадидские школы, усули савтия (фонетический метод), усули кадим (традиционный метод), русско-туземные школы, Мухаммад Рахимхан, Асфандиярхан, Сайид Исламходжа, Полвонниёзходжи Юсунов, Российская империя, Бобоохун Салимов.

**Kirish.** XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy o'zgarishlar jarayoni Xiva xonligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Aynan shu davrda jamiyat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishga intilgan ma'rifatparvar ziyolilar harakati – jadidchilik vujudga keldi. Xiva jadidchiligi umumturkiston jadidchilik harakatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u mahalliy sharoit va an'analarga mos ravishda shakllandi. Mazkur harakatning asosiy maqsadi eskicha ta'lim tizimini isloh qilish, yangi usul maktablarini tashkil etish, aholining savodxonligini oshirish va ilm-fanni rivojlantirishdan iborat edi. Jadidlar jamiyatni yangilashda ta'limning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini chuqur anglab, o'z faoliyatlarini aynan shu soha bilan bog'ladilar. Shu bilan birga, ular milliy ongini uyg'otish, erkin fikrlashni rivojlantirish hamda zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishga alohida e'tibor qaratdilar.

Xiva jadidchiligi nafaqat madaniy-ma'rifiy, balki ijtimoiy va siyosiy jarayonlarga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ushbu harakat vakillari orqali jamiyatda islohotlarga ehtiyoj kuchaydi va taraqqiyot sari intilish yanada faollashdi. Shu sababli, Xiva jadidchiligi o'zbek xalqi tarixida muhim o'rin egallaydi va uning o'rganilishi bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega.

**Adabiyotlar sharxi.** Xiva jadidchiligi masalasini o'rganishda bir qator ilmiy manbalar muhim o'rin tutadi. Ushbu adabiyotlar mazkur harakatning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini turli jihatdan yoritib beradi.

U. Dolimovning “Turkistonda jadid maktablari”<sup>1</sup> asarida jadidchilikning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan ta'lim tizimidagi islohotlar keng tahlil qilinadi. Muallif yangi usul maktablarining tashkil etilishi, ularning o'quv dasturlari va pedagogik

<sup>1</sup> Dolimov. U. Turkistonda jadid maktablari. – Toshkent: Universitet nashriyoti. 2006.

yondashuvlarini yoritib, Xiva hududidagi jadid maktablari faoliyatiga ham alohida to'xtaladi. Ushbu manba jadid ta'lim tizimining mohiyatini anglashda muhimdir.

M. Mahmudov va U. Sheripovning "Xiva xonligi tarixi (ijtimoiy-siyosiy jihatlari)"<sup>2</sup> nomli asari Xiva xonligining umumiy tarixiy rivojlanishini, jumladan, jadidchilik harakatining yuzaga kelishiga ta'sir etgan siyosiy va ijtimoiy omillarni ochib beradi. Unda Muhammad Rahimxon Feruz va boshqa islohotchi arboblarning faoliyati ham tahlil qilinadi.

Rustam Sharipovning "Turkiston jadidchilik harakati tarixidan"<sup>3</sup> asarida jadidchilik harakati keng hududiy doirada ko'rib chiqilib, uning Turkiston miqyosidagi ahamiyati yoritiladi. Muallif jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalari, milliy uyg'onishdagi o'rni hamda Xiva jadidchiligining umumiy jadidchilik harakatidagi o'rnini ilmiy asosda bayon qiladi.

Q. Munirovning "Xorazmda tarixnavislik"<sup>4</sup> asari esa Xorazm hududida tarixiy tafakkur va yozma manbalar rivojini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda jadid davriga oid mualliflar va ularning asarlari haqida muhim ma'lumotlar beriladi. Bu manba orqali jadidchilikning madaniy va ilmiy muhitga ta'sirini anglash mumkin.

Q. Usmonovning "O'zbekiston tarixi"<sup>5</sup> darsligida esa jadidchilik harakati umumiy tarixiy jarayon sifatida yoritilib, uning paydo bo'lish sabablari, asosiy namoyandalari va natijalari tizimli tarzda bayon etiladi. Ushbu darslik Xiva jadidchiligini umumturkiston kontekstida tushunishga yordam beradi.

Umuman olganda, mazkur adabiyotlar Xiva jadidchiligi tarixini kompleks o'rganishda muhim nazariy va amaliy manba bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali jadidchilikning ta'lim, madaniyat va ijtimoiy hayotdagi o'rni hamda uning tarixiy ahamiyati chuqurroq anglash imkoniyati yaratiladi.

**Natijalar.** Vatanimiz tarixida XIX asrning ikkinchi yarmida hukmronlik qilgan xonlar orasida hech biri adabiyot va san'at, ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, mamlakat obodonchiligi sohasida Muhammad Rahimxon Feruzchalik faoliyat ko'rsatgan emas. Ma'rifatparvar hukmdor 47 yil xonlik qildi, dastlabki o'n yil mustaqil xon sifatida, ammo Rossiya mustamlakachilik siyosati eng yuqori bosqichga ko'tarilgan bir davrda, 37 yil Rossiya imperiyasining vassali sifatida faoliyat ko'rsatdi. U butun hukmronligi davrida ulug' ustoz, Turonzaminning buyuk mutafakkiri Muhammad Rizo Ogahiyning raiyatni ma'rifat nuridan bahramand qilish haqidagi o'gitlariga izchil amal qildi:

<sup>2</sup> Mahmudov M., Sheripov U. Xiva xonligi tarixi (ijtimoiy-siyosiy jihatlari). – Urganch, Urganch davlat universiteti noshirlik bo'limi, 2013.

<sup>3</sup> Rustam Sharipov. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan.–Toshkent: "O'qtuvchi" 2002.

<sup>4</sup> Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik: (XVII–XIX va XX asr boshlari). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002.

<sup>5</sup> Usmonov Q. O'zbekiston tarixi: Oliy o'quv yurtlari barcha bakalavr yo'nalishlari uchun darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2006.

Bu soʻzlarnikim, man bayon ayladim, necha bayt birla ayon ayladim.  
 Bularga qaysi shohki qilsa amal, uning mulkiga yetmas aslo halal.  
 Hukumat binosi boʻlur ustivor, uning xonadonida tutgay qaror.  
 Shaho, olam ichra bugun shohsen, burundin bu soʻzlarga ogohsen.  
 Umidim budurkim, amal qilgʻasen, amal aylamakda jadal qilgʻasen.<sup>6</sup>

Muhammad Rahimxon Soniy oʻzbek xonlari orasida birinchi boʻlib Xivada 1873 yilda litografiya tashkil qildi, ulugʻ mutafakkirlar Alisher Navoiy, Abulgʻozi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiy asarlarini chop ettirdi. Oʻlkada mavjud ulkan tarjima maktabini yuksak taraqqiyot bosqichiga koʻtardi. Yosh avlod tarbiyasi masalasiga katta ahamiyat berdi. Feruzning bevosita rahnamoligida Muhammad Rizo Ogahiy Sharqning buyuk mutafakkirlari Unsurulmaoliy Kaykovusning “Qobusnoma”, Shayx Muslihiddin Saʼdiyning “Guliston” va “Boʻston”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, XV asrda Hirotda yashab ijod etgan axloqshunos olim Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy”, Zayniddin Vosifiyning “Badoeʼul vaqoe” kabi sof pedagogikaga oid asarlarini fors tilidan oʻzbek tiliga tarjima qildi.<sup>7</sup>

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, Buxoro amirligiga nisbatan Xiva xonligida Muhammad Rahimxon Soniy va mirzaboshi Komil boshchiligida usuli jadid maktablari ancha erta ochila boshladi. 1891-yildayoq ulugʻ mutafakkir Komil tashabbusi bilan Urganchda birinchi usuli jadid maktabi ochildi. Ushbu maktab xalq oʻrtasida katta eʼtibor qozondi, unda dastlab 25 oʻquvchi taʼlim oldi. Diniy ilmlar bilan bir qatorda jugʻrofiya, tarix, hisob kabi aniq fanlar hamda rus tili alohida oʻquv predmeti sifatida oʻqitildi. Qozondan maxsus oʻqituvchi chaqirilgan edi. Anʼanaviy mahalliy maktablardan farqli ravishda dars jadvali, har bir dars 50 minut va 10 minutlik tanaffus joriy qilindi. Bu maktabni hatto Muhammad Rahimxon kelib koʻrdi, oʻgʻli Asfandiyorni shu maktabga oʻqishga berdi, maktabning kerakli jihozlari, oʻquv qurollari uchun davlat xazinasidan mablagʻ ajratdi. Maʼlumotlarga qaraganda, boʻlgʻuvsi devonbegi, Xiva xonligida jadidchilik harakatining rahnamolaridan Sayid Islomxoʻja ibn Sayid Ibrohimxoʻja, shoir va mutafakkirlar Yusufbek Bayoniy, Muhammad Rasul Mirzo (Komil Xorazmiyning oʻgʻli - U.D.), Ahmad Tabibiy, Avaz Oʻtar oʻgʻli shu maktabda rus tilini oʻrganishgan.<sup>8</sup>

1898-yili Xivada Orenburglik muallimlar Mahmud Vafo va Abdurahmon afandilar tomonidan “usuli savtiya” maktabi ochildi. Ammo bir oylik faoliyatidan keyin “taassufning ziyoda oʻldigini anglab, Urganch shahrina ketdilar va u yerda “usuli savtiya” maktabi kushod etdilar”.

<sup>6</sup> Dolimov. U. Turkistonda jadid maktablari. – Toshkent: Universitet nashriyoti. 2006.

<sup>7</sup> Dolimov. U. Turkistonda jadid maktablari. – Toshkent: Universitet nashriyoti. 2006.

<sup>8</sup> Mahmudov M., Sheripov U. Xiva xonligi tarixi (ijtimoiy-siyosiy jihatlar). – Urganch, Urganch davlat universiteti noshirlik boʻlimi, 2013.

Xiva xonligida “usuli jaded” maktablari taraqqiyotining oldini olish maqsadida 1894-yildan boshlab Turkiston general-gubernatorligining faol aralashuvi bilan dastlab Xivada, keyinroq Urganchda rus-tuzem maktablari ochila boshlaydi. Bunday maktablarni o‘z homiyligiga olgan Sayid Islomxo‘ja millat ma’naviyatidan kelib chiqqan holda ular dasturiga rus tili, riyoziyot, jug‘rofiya, handasa kabi fanlar bilan bir qatorda, ona tili va adabiyot hamda musulmon dini qonunlarini kiritadi, ularning o‘qitilishini o‘zi nazorat qiladi. Chunki u “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Tarjimon” gazetalarida rus-tuzem maktablari mohiyati haqida kechayotgan munozaralarni kuzatib borar, bunday maktablardan general-gubernatorlik ko‘zlagan maqsadlaridan to‘la xabardor edi. Shuning uchun ham rus-tuzem maktablarida milliy til, adabiyot va islom ma’naviyatining o‘qitilishiga katta e’tibor beradi.

Komil Avaz “Garchi erurman tole’i Feruz” maqolasida ta’kidlaganidek, Feruz xonlikda ta’lim-tarbiya, maorif sohasida ham katta islohotlarni amalga oshirgan. 1904-yil noyabr oyida Muhammad Rahimxon farmoniga muvofiq Urganch shahrida “usuli savtiya” metodiga asoslangan jadid maktabi ochiladi, unda Qozondan taklif etilgan pedagog Husayin Kushaev muallimlik qiladi, o‘quvchilar soni 45 nafarga yetadi. 1906 yilda esa ota-onalar, maorifparvarlarning taklifiga muvofiq Urganchda xuddi shunday maktab qiz bolalar uchun ham ochiladi. Muallim etib uning rafiqasi Komila Kushaeva tayinlanadi. Ushbu maktabni Muhammad Rahimxon borib ko‘radi, ta’lim-tarbiya ishlarining yangicha yo‘lga qo‘yilganligidan mamnun bo‘ladi, Husayin Kushaevni boshdan-oyoq sargo bilan taqdirlaydi va xonlik xazinasidan maktabga iqtisodiy yordam ko‘rsatishga qaror qiladi.<sup>9</sup>

Asfandiyor valiahdlik vaqtidayoq “usuli savtiya”ga asoslangan yangi maktablarning usuli qadim maktablaridan afzalliklarini tushunib yetgan, islohotchilik faoliyati bilan ancha e’tibor qozongan yangilik tarafdorlaridan edi. 1907-yil fevralda Xiva aholisining arzigina binoan Qozon shahrining mashhur Olimjon Barudiy madrasasidan ikki nafar usuli jadid muallimini taklif etadi. Bu muallimlar ishtirokida yangi maktab ochadi, shu bilan birga, maktabi rushidiya (o‘rta maktab) ochish ishlarini boshlaydi: “Kelajak may oyinda, inshoalloh, maktabi rushidiya ochilajakdur. Maktabning sohibi vuzaroyi kiromdan Islomxo‘ja janoblari o‘lub, muallimi daha Ahmad Nuriddin afandidir”.

Xivada ochilgan ushbu “Maktabi Mahramiy” va “Maktabi jadida”da 113 talaba 1907-yil 28-mayda valiahd Asfandiyor va devonbegi huzurida, 31-mayda qozilar, oxund (mudarris)lar, muftiylar huzurida imtihon topshirdilar. Imtihon ahli Xiva va Urganchda yana ikki usuli jadid maktabi ochish va Qozondan yana ikki muallim taklif

<sup>9</sup> Mahmudov M., Sheripov U. Xiva xonligi tarixi (ijtimoiy-siyosiy jihatlar). – Urganch, Urganch davlat universiteti noshirlik bo‘limi, 2013.

qilishga qaror qildilar. Xonlikdagi yangi maktablar noziri Ramazon Muhammad Karimzoda bu qarorni barchaga e'lon qildi.<sup>10</sup>

Turkistonda jadidchilikning maydonga kelishi va rivojlanishida Usmonli turk saltanatidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-mafkuraviy g'oya va harakatlarning ham ta'siri kuchli bo'ldi. Ayniqsa, Turkiya sultoni Abdulhamid II (1876–1909) davrida mamlakatni qoloqlikdan olib chiqishga qaratilgan qator qonunlar va ularning hayotga tadbiiq etilishi Turkiston xalqlari uchun ham ahamiyatli edi. Turkiyadagi ilg'or islohotlar Yevropa madaniyati va turmush tarzining mamlakatda keng ommalashuviga olib keldi. Bu ijobiy yo'nalish Turkistonga ham o'z ta'sirini o'tkazdi.

Bu vaqtda Turkiston, amirligidan Turkiyaga borib tahsil ko'rayotgan ko'plab ziyolilarda o'sha mamlakatda amalga oshirilayotgan ijobiy islohotlar, ilg'or Yevropa turmush tarzi, texnika taraqqiyoti, madaniyati, ma'rifatidan ta'sirlanish, unga havas bilan qarash, o'z vatanlarida ham shu kabi o'zgarishlar bo'lishini qo'msash his-tuyg'ulari uyg'ona boshladi.

Xivada rivojlana boshlagan jadidchilik harakatining o'ng oqimi savdo-sanoat kapitali va mahalliy boylardan yiriklarini o'ziga birlashtirgan edi. Ularning yetakchisi bo'lgan bosh vazir Islomxo'ja ibn Ibrohim- xo'ja kuyovi bo'lgan Asfandiyorxonning mutlaq hokimiyatini saqlab qolgan holda, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazish yo'li bilan kapitalistik munosabatlarni rivojlantirishga keng yo'l ochishga intilardi.

Xiva jadidlarining so'l oqimiga o'rta va mayda burjuaziya, hunarmandlar hamda mehnatkashlarning turli tabaqa vakillari birlashgan bo'lib, ularning yetakchisi - qozikalon Boboovun Salimov edi. Uning tarafdorlari orasida devonbegi Husainbek Matmurodov, Xudoybergan Devonov, Avaz O'tar o'g'li, Polvonniyozhoji Yusupov, Otajon Safoev, Mulla Bekchon Rahmonov, Otajon Abdalov, Jumaniyoz Sultonmurodov kabi taraqqiyparvar insonlar bor edi.

Xiva jadidlarining aksariyati ma'rifatparvar g'oyalar bilan sug'orilgan dunyoqarashga ega va ko'pgina tillarni biladigan ziyolilar bo'lgan. 1908-yilda Xivaga kelgan professor A. N. Samoylovich devonbegi Husaynbek haqida: "U kishi "rus tilini bilganlar, rus va musulmon gazetalariga a'zo bo'lganlar", deb guvohlik bergan. 1909-yil sentabr-oktabr oylarida Xivada bo'lgan Rossiya tashqi ishlar vaziri Minorskiy: "Islom- xo'ja ruschani yetarli darajada tushunadi hamda Kavkaz, Qrim, Konstantinopolda nashr etiladigan gazetalardagi musulmon adabiyotiga oid ma'lumotlarni diqqat bilan kuzatib boradi", deb yozgandi. Jadidchilik harakati yetakchilaridan yana biri Polvonniyozhoji Yusupov ham arab, fors va rus tillarida bemalol gaplasha olgan. U Rossiya va Turkistonda chop etiladigan "Tarjimon", "Vaqt", "Yulduz", "Taraqqiy" kabi gazetalarni doimiy ravishda o'qib borardi.

<sup>10</sup> Mahmudov M., Sheripov U. Xiva xonligi tarixi (ijtimoiy-siyosiy jihatlari). – Urganch, Urganch davlat universiteti noshirlik bo'limi, 2013.

Jadidchilik harakatining yana bir namoyondasi Boboovun Salimov o'zbek, arab, fors, rus va boshqa tillarni bilar hamda dunyoviy bilimlarni egallagan din arbobi edi.<sup>11</sup>

So'1 qanot vakillarini qo'llab-quvvatlagan progressiv kayfiyatdagi savdo-sotiq doiralari vakillari 1904-yilda "Jamiyati xayriya" nomli tashkilot tuzdilar va yangi uslubdagi maktablar ochishda jadidlarga moddiy yordam bera boshladilar. Shu yili 10-noyabr kuni Xiva shahrida ochilgan jadid maktabiga Qozondagi yangi usuldagi "Muhammadiya" madrasasini tugatgan Husain Qo'shayev o'qituvchi etib tayinlandi.

1906-1911-yillarda jadidlar Xo'jayli, Qo'ng'iroq, Gurlan va Shovotda yangi uslubdagi maktablar ochdilar. Ularda o'qituvchilik qilgan ma'rifatparvarlar orasida Yusuf Ahmedov, Muhammadsharif Xudoyberganov ismli jadidlar bor edi. Jadid maktablari uchun Boboovun Salimov Turkiyaning Istanbul shahrida tahsil olayotgan Mulla Bekchon Rahmonov bilan hamkorlikda "Alifbo" va "O'qish kitobi"ni yozdilar."

1910-yili jahondagi siyosiy jarayonlardan yaxshi xabardor bo'lgan Islomxo'ja xonlikda siyosiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazish rejasini taklif qildi. Undagi ko'zlangan tadbirlar orasida quyidagi muammolarni yechish vazifa qilib belgilandi.

- 1) xonlikdagi mansabdor va xizmatchilarga lavozimiga qarab oylik maosh belgilash;
- 2) dehqonlardan soliq olishni tartibga keltirish va soliq oluvchilarni 3 tabaqaga ajratish;
- 3) zakot, boj, xiroj kabi soliqlarni tartibga solish;
- 4) aholidan savdo-sotiq uchun olinadigan soliqlarni tartibga solish
- 5) yerlarni sug'orish ishlarini tartibga solish;
- 6) yo'llar, temir ko'priklar qurish va pochta-telegraf xizmatini tashkil qilish;
- 7) shaharlarda kasalxonalar qurish, qishloqlarda feldsherlik xizmatini ochish, tibbiy xizmatchilarni taklifetish;
- 8) barcha vaqf yerlarini markazlashtirish va daromadlarini maorif ishlariga sarflash;
- 9) barcha maktablarda yangicha o'qitish usuliga o'tish, maktablar dasturiga rus tili, geografiya, tarix fanlarini majburiy qilib kiritish;
- 10) xon xazinasining hisobini yuritish, kirim-chiqim daftirlarini olib borish<sup>12</sup>.

1914-yil avgustidan boshlab jadidlar ijtimoiy harakat sifatida "Yosh xivaliklar" nomi bilan yuritila boshlandi. Siyosiy partiya sifatida shakllana boshlagan ushbu harakatning g'oyaviy va tashkiliy jihatdan mustahkamlanishida Polvonniyozhoji Yusupov, Husainbek Matmurodov, Nazar Sholikorov, Jumaniyoz Sultonmurodov, Mulla Bekchon Rahmonov, Boboovun Salimov, Jumaniyoz Hoji Boboniyozov, Otajon Sapayev, Boboxon Yoqubov, Hakimboy Muhammedov, Muhammadyor Abdullayev, Xudoybergan Devonov kabi faollarning xizmatlari katta bo'ldi.

<sup>11</sup> Rustam Sharipov. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan.–Toshkent: "O'qtuvchi" 2002.

<sup>12</sup> Dolimov. U. Turkistonda jadid maktablari. – Toshkent: Universitet nashriyoti. 2006.

Ular ijtimoiy-siyosiy hayotda keskin o'zgarishlar qilishning obyektiv zarurligini tushunib yetgan, bilimli, ongli, jasoratli kishilar edi. Xivalik jadidlar- larning ayrimlari Moskva, Petrograd, Qozon, Anqara, Tehron va boshqa shaharlarda bo'lib, jahon fani va madaniyati bilan bevosita tanisha boshladilar. Jumladan, Polvonniyoz hoji Yusupov keyinchalik Istanbul, Misr va Shomga qilgan safari tasurrotlarini yozib qoldirgandi.

**Xulosa.** Xiva xonligida jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jamiyatni yangilashga qaratilgan muhim ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida namoyon bo'ldi. Bu harakat, avvalo, ta'lim tizimini isloh qilish, yangi usuldagi maktablarni joriy etish va xalqning savodxonligini oshirish orqali jamiyat taraqqiyotiga xizmat qildi. Muhammad Rahimxon Feruz, Asfandiyorxon, Sayid Islomxo'ja kabi ilg'or fikrli davlat arboblari va ziyolilar jadid maktablarini qo'llab-quvvatlab, ularning rivojiga bevosita hissa qo'shdilar. Xivada ochilgan usuli jadid va usuli savtiya maktablari an'anaviy usuli qadim maktablaridan tubdan farq qilib, yangi fanlar, zamonaviy o'qitish metodlari va dars tizimini joriy etdi. Bu esa yosh avlodning dunyoqarashi kengayishiga, ilm-fanga qiziqishining ortishiga xizmat qildi. Shu bilan birga, Rossiya imperiyasining ta'siri ostida ochilgan rus-tuzem maktablari ham ma'lum darajada ta'lim tizimiga yangiliklar olib kirgan bo'lsa-da, ular orqali mustamlakachilik siyosati ham amalga oshirilgan.

Umuman olganda, Xiva jadidchiligi milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik va islohotchilik harakatining muhim bosqichi bo'lib, u keyingi davrlardagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar uchun zamin yaratdi. Ushbu harakat vakillarining sa'y-harakatlari natijasida ta'lim tizimi yangilandi, milliy ong va tafakkur rivojlandi hamda jamiyat taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Dolimov. U. Turkistonda jadid maktablari. – Toshkent: Universitet nashriyoti. 2006.
2. Mahmudov M., Sheripov U. Xiva xonligi tarixi (ijtimoiy-siyosiy jihatlar). – Urganch, Urganch davlat universiteti nashriyat bo'limi, 2013.
3. Rustam Sharipov. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan.–Toshkent: "O'qtuvchi" 2002.
4. Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik: ( XVII–XIX va XX asr boshlari). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002.
5. Usmonov Q. O'zbekiston tarixi: Oliy o'quv yurtlari barcha bakalavr yo'nalishlari uchun darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2006.